

USMON NOSIR HAYOTI VA IJODINI ANIQ HAMDA TABIIY FANLAR BILAN ALOQADORLIKDA O‘RGATISH MEXANIZMLARI

Ortiqova Gulshoda Komiljon qizi

*Namangan davlat pedagogika instituti
o‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi
2-kurs magistranti*

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalari talabalariga shoir, dramaturg, tarjimon Umon Nosir she’rlarini aniq va tabiiy fanlar bilan fanlararo aloqani yo‘lga qo‘ygan holda o‘qitish texnologiyalari, mexanizmlari, yangi interfaol metodlar, ularning samaradorligi haqida fikr-mulohazalar yoritilgan. Har bir metod va usullarning o‘ziga xos tomonlari sanab o‘tilgan.

KALIT SO‘ZLAR: fanlararo aloqa, “Gorizontal – Vertikal” metodi, “Braun harakati” metodi, “Muammoli ta’lim” texnologiyasi

Ta’lim jarayonlarida darslar davomida fanlararo integratsiyani yo‘lga qo‘yish muhim va ahamiyatli ekanligi barchamizga ma’lum. Shunday ekan, adabiyotshunoslik fanlari turkumiga kiruvchi darslarida, xususan, Usmon Nosir hayoti va ijodiga oid mavzularni o‘qitishda fanlararo aloqadorlikdan foydalanish katta rol o‘ynaydi. Chunki shoir asarlarining tub mohiyatini bilish uchun boshqa fanlardan ham boxabar bo‘lish talab etiladi. [2.54-58.] Negaki, Usmon Nosir asarlarida tarix ham, musiqa ham (she’rlarida tabiiy ohangdorlik borligi uchun), tabiatshunoslik ham o‘zaro jamlangan. Shu sababli ham shoir hayoti va ijodini avvaldan ijtimoiy fanlar, san’at sohasi bilan aloqadorlikda o‘rganilib kelingan. Biroq oliy ta’lim muassasalarida Usmon Nosir hayoti va badiiyatini aniq hamda tabiiy fanlar bilan bog‘liqlikda o‘rganish, o‘qitish chin ma’noda yangilik, bu izlanish yo‘lidagi o‘zgacha yo‘nalish hisoblanadi. Oliy ta’lim muassasalarining o‘quv dasturiga ko‘ra ”Usmon Nosir hayoti va ijodi. ”Nil va Rim“, ”Yana she’ringa“, ”Yurak“ va boshqa she’rlari tahlilini o‘rganish uchun dars soati oz miqdorida berilgan. Shu sababli mazkur rejamizda darslik asosidagi



manba va materiallarni aniq hamda tabiiy fanlar bilan aloqadorlikka asoslangan turli interfaol metodlar yordamida o‘rganamiz.

Bugungi kunda aniq hamda tabiiy fanlarni o‘qitishga alohida e‘tibor qaratilayotgani, ta‘lim muassasalarida ham aniq fanlarning, xususan, Oliy matematika o‘quv kursining o‘qitilishi uchun dars soatlarining boshqa fanlarga nisbatan ko‘proq ajratilgani, shu sababdan aksariyat talabalar bu fanga qiziqishini hisobga olgan holda adabiyot darslarida, tabiiyki, Usmon Nosir asarlarini o‘qitishda ham Oliy matematika fani bilan aloqada bo‘lish dars sifatini yaxshilaydi va natijani oshiradi. Bunda bir necha yillardan buyon amalda qo‘llanib kelinayotgan, tajribadan o‘tgan va yaxshigina foyda bergan ”Veen diagrammasi“ metodini birinchi bo‘lib aytish joiz. Bu metodni qo‘llashdan oldin yozuv taxtasiga yoki avvaldan tayyorlab qo‘yilgan katta oq qog‘ozga Venn diagrammalari chiziladi. Ushbu chizma bilan bog‘liq savollar beriladi.[1.454-458.] Ko‘rinib turganidek, talabalarning matematikaga oid bilimlari sinovdan o‘tkaziladi. Talabalardan savollarga javob olingach, tayyor holda turgan Veen diagrammlariga darslikka ko‘ra tahlilga olingan ”Nil va Rim“ hamda ”Yurak“ she‘rlarining o‘xshash va farqli tomonlari yoziladi. Ushbu metodni qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari shundaki, bu usul yordamida nafaqat bir obyekt, balki ikki va undan ortiq obyektlarni, masalan, she‘lar, nasriy asarlar, ijodkorlar hayoti haqidagi ma‘lumotlarni bir paytning o‘zida tahlil qilish, o‘rganish mumkin. Bundan tashqari o‘rganiladigan mavzuning mazmuni va ko‘lamiga ko‘ra Veen diagrammasini murakkablashtirish ham mumkin. Shuningdek, bu metodni amalda qo‘llash natijasida talabalarda ikki va undan ortiq predmetlarni o‘zaro qiyoslash, taqqoslash, xulosa bera olish [3.4-5.] kabi qobiliyatlar ham shakllanib boradi.

Adabiyot va matematikani o‘zaro bir nuqtada kesishtiruvchi interfaol metodlardan biri bu ”Gorizontal - Vertikal“ deb nomlangan metoddir. Bu usulni qo‘llashdan avval o‘qituvchi tomonidan gorizontal va vertikal

chiziqlar yozuv taxtasiga chizib ko‘rsatib beriladi yoki ular haqidagi ma’lumotlar talabalardan so‘raladi. Albatta, bu jarayonda matematikadan olgan bilimlarimiz bizga qo‘l keladi. Gorizental bu yotiq holdagi, vertikal esa tik holdagi chiziqlar ekani anglashilgach, endi metodni qo‘llashga o‘tiladi. ”Gorizental - Vertikal“ usuli quyidagi tartibda amalga oshiriladi: o‘qituvchi tomonidan avvaldan tayyorlab qo‘yilgan ”Nil va Rim“ hamda ”Yurak“ she’rlariga bog‘liq bo‘lgan ma’lumotlar aralash tarzda o‘qiladi. Bu ma’lumotlar quyidagicha bo‘lishi mumkin:

Gorizental chiziq ”Nil va Rim“ she’riga oid ma’lumotlarni ifodalaydi.

1. Bu she’rda go‘yoki mantiqsizlik, noaniqlikka yo‘l qo‘yilgandek tuyuladi, lekin aslida unday emas.
2. Asarda naqarotdek takrorlangan hayqiriq mavjud.
3. Shoir bu she’rida davrni la’natlaydi.
4. Bu she’rda o‘ziga xos ”g‘alati“ o‘xshatishlarni uchratamiz.

Vertikal chiziq esa ”Yurak“ she’riga oid ma’lumotlarni ifodalaydi.

1. Bu she’r o‘zida shoirning insoniy xarakterini va ijodiy taqdirini mujassam etgan.
2. Bu she’rida buyruq, itoat haqida so‘z boradi.
3. Bu she’rida Usmon Nosirning qalbida ilhom bulog‘i jo‘sh urganini ko‘rishimiz mumkin.
4. She’rda Vatan roziligi yetakchi o‘rinlarga ko‘tarilgan.

O‘qituvchi tomonidan shu kabi ma’lumotlar navbatma-navbat o‘qib eshittirilgandan so‘ng agar mazkur ma’lumot ”Nil va Rim“ she’riga aloqador bo‘lsa, talabalar gorizental shaklda stuldan turadilar, aksincha, ”Yurak“ she’riga oid bo‘lsa, vertikal shaklda qatorlar orasidagi yo‘lakka saf tortgan kabi turadilar. Bu metodni qo‘llashning ko‘plab xususiyatlari mavjud. Avvalo, talabalarda ma’lumotlarni saralay olish qobiliyati shakllanadi. Ikkinchidan matematika fani bilan o‘zaro integratsiya yo‘lga qo‘yiladi. Yana ham aniqrog‘i, matematikadan gorizental, vertikal chiziqni bilmagan talaba bu metodni



qo‘llash jarayonida qatnasha olmaydi yoki topshiriqni to‘g‘ri bajarmaydi. (Garchi Usmon Nosir she‘rlari haqida to‘liq bilimga ega bo‘lsa ham.) Uchinchidan, bu metod talabani harakat qilishga, ya‘ni turib-o‘tirishga majbur qiladi. Bu esa talabalarning salomatligi, jismoniy, fiziologik va psixologik holatini yanada yaxshilashga yordam beradi.

Bilamizki, aniq fanlar faqatgina matematikadan iborat emas. Bu turkumdagi fanlar sirasiga fizika fanini ham kiritishimiz mumkin. Shu sababdan ham oliy ta‘lim muassasalarida Usmon Nosir hayoti va ijodini o‘qitish jarayonida fizika fani bilan ham integratsiyani yo‘lga qo‘ysak, chin ma‘noda metodika yo‘nalishida yangilik qilgan bo‘lamiz. Buning uchun esa, albatta, fizika fanidan olingan bilimlar biz uchun asos bo‘ladi. Fizika va adabiyot fanlarining o‘zaro aloqadorligiga asoslangan ”Braun harakati“ metodi vositasida ham Usmon Nosir hayoti va ijodini samarali o‘rgatish mumkin.

Braun harakati moddalarning to‘xtovsiz va tartibsiz harakati demaktir.[2.57.] Adabiyot darslariga esa bu jarayonni quyidagicha tatbiq etishimiz mumkin: Usmon Nosir hayoti va ijodiga oid ma‘lumotlar talabalar tarafidan aytiladi. Jarayonni o‘qituvchi boshlab beradi. ”Usmon Nosir 1912-yil 13-noyabrda Namanganning Chuqurko‘cha dahasida tug‘ilgan“, – deydi va qo‘lidagi koptokchani istalgan o‘quvchiga uloqtiradi. Koptokchani olgan talaba ”Mehrims“ nomli she‘rlar to‘plami mavjud“, – deydi va jarayonni davom ettiradi. ”Braun harakati“ metodining o‘ziga xos xususiyati shundaki, ma‘lumotlar tartibsiz (tasodifiy tanlangan holda), to‘xtovsiz (koptokchaki olgan talaba to‘xtab qolmasligi kerak, aks holda o‘yinni tark etadi), ma‘lumotlar takror bo‘lmagan holda aytilishi lozim. Shuningdek, jarayon davomida talabalarda ayriqcha yuqori kayfiyat va qiziqish paydo bo‘ladi. Bu metod vositasida talabalar turli vaziyatlarni hech qanday tayyorgarliksiz qabul qilish va ularga javob qaytara olish jihatlarini shakllantira oladilar.



Aniq fanlar bilan bir qatorda adabiyot darslarini, xususan, Usmon Nosir she’rlari tahlilini tabiiy fanlar integratsiyalashuvi asosida o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki Usmon Nosirning aksariyat she’rlarida tabiat tasviri va undagi jarayonlar ustuvorlik qiladi. Masalan, darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘qish uchun tavsiya etilgan ”Yurganmisiz birga oy bilan?“ she’rida buni yaqqol ko‘rishimiz mumkin:

Yurganmisiz birga oy bilan
Oqshom payti ko‘m-ko‘k o‘rmonda?
Maysalarga shabnam qo‘nganda
Shunday yaxshi, tinch bo‘lar ekan!
Shitir-shitir o‘ynar shabada,
Barglar musiqasi bir shirin...
Havo go‘yo tiniq, sof boda,
Ko‘ngil sezar hayotning sirin.
Men mast bo‘lib qoldim bir kecha,
Sil o‘pkamni ancha yayratdim.
Uxlamasdan to tong otguncha,
Dilginamni rosa sayratdim. [3.134.]

Ko‘rinib turganidek, she’rning dastlabki ikkita to‘rtligida shoir tabiat tasvirini chizadi, uni ko‘z oldimizda go‘yoki jonlantiradi. Bu she’rni ”Muammoli ta’lim“ texnologiyasi asosida tahlil qilishimiz, savollarga javob berishimiz mumkin. Muammoli ta’lim – bu o‘qituvchining talabalarni ketma-ket muammoli vaziyatlar tizimini oldindan o‘ylab qo‘yilgan, yaratish yo‘li bilan muammoli o‘rgatish shartlarini ta’minlash va ularni talabalar tomonidan yechish jarayonini boshqarish bo‘yicha faoliyatdir.[4.9.366.] Bu metod hozirda xalqaro miqyosda keng qo‘llanilmoqda. Shuningdek, o‘qituvchidan ham, talabalardan ham birdek faollikni, izlanuvchanlikni talab etadi. Muammo yechimini topishda esa keng doirada fikr yuritish lozim. Savollarga javob berishimizda bizga tabiatshunoslik fani yordamga keladi. Bu jarayonda o‘qituvchi ”Nima sabadan oqshom paytida o‘rmon ko‘m-ko‘k deya tasvirlanmoqda?“, ”Aslida, haqiqiy hayotda oqshomlari tabiat qanday holatda bo‘ladi?“, ”She’rda aytilganidek barglarning musiqasi bilan shabodaning shitir-shitir o‘ynashida bog‘liqlik

bormi?“, ”Tabiatshunoslik fanida shabodaga qanday ta’rif berilgan?“ kabi savollarni o‘rtaga tashlaydi. Talabalar o‘z bilim darajalaridan, kuzatuvlaridan va she’r misralaridagi so‘zlar mazmunidan kelib chiqib mulohaza yuritadilar, savollarga atroflicha javob beradilar. Shunisi ahamiyatliki, bu texnologiyani qo‘llash davomida talabalar faqatgina fan doirasida olgan ma’lumotlariga emas, balki o‘z kuzatuvlariga ham asoslanadilar. Natijada Usmon Nosir hayoti va ijodi mavzusini o‘qitish asnosida adabiyotni amaliy hayot bilan ham bog‘lay olish imkoniyati yuzaga keladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, shoir Usmon Nosir asarlarini, she’rlarini, aslida, barcha fanlar bilan aloqadorlikda o‘rganish mumkin. Sababi ularda musiqiy ohangdorlikni ham, tabiat tasvirlarini, go‘zal o‘xshatishlarni ham bir paytning o‘zida topish mumkin. Bu esa turli soha va yo‘nalishlar bilan integratsiya asosida o‘rganish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Gulshoda Ortiqova, Usmon Nosir hayoti va ijodini o‘rganishda fanlararo integratsiyadan foydalanish (maqola), Innovative development and educational activities ilmiy jurnali, volume 2, issue 11, ISSN: 2181-3523 6-son, 2023/11, 454-458-betlar
2. Sobirova, M. (2022). In imparting humane education use of integrated technology. In Volume 8, Issue 1, of JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, ISSN No: 2581 – 4230. Impact factor 8.155. VOLUME 8, ISSUE 1, January 2022, Published by Novateur Publication, M.S. India. – P. 151-158. <https://repo.journalnx.com/index.php/nx/article/view/3880/3718>
3. Sobirova, M. (2020). Assimilation of human qualities during the process of working with text. International Scientific Journal “Theoretical & Applied Science” SOI: 1.1/TAS (<http://t-science.org/arxiv> DOI/2020/12-92.html) (DOI:10.15863/TAS Published: 18.12.2020).
4. Sobirova, M. (2020). The role of the family in the development of the integration process in science and education. "A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal" (<https://journalnx.com/papers/20151362-the-integration-process.pdf>) impact faktorga ega bo‘lgan DOI raqamli jurnali. 2020 y. 18-19 uyun. – B. 1161-1166.



5. Gulshoda Ortiqova, Usmon Nosir she'rlari asosida sifat, son, olmosh so'z turkumlarini o'rgatish metodlari (maqola), "Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali 2024-yil 4-son. ISSN: 2992-9008. UDK: 37.
6. M.Yusupov va boshqalar (darslik) Fizika 6-sinf uchun darslik. Toshkent. – Respublika ta'lim markazi, 2016. – 57-bet
7. Usmon Nosir, Ertani sevinib kutaman, she'rlar to'plami/ G'ofur G'ulom nashriyoti. – Toshkent. – 1997. – 134 bet
8. Q.Husanboyeva. Adabiyot o'qitish metodikasi va muammoli ta'lim [Matn] / o'quv qo'llanma: – Toshkent: "Barkamol fayz media" nashriyoti, 2021-yil. – 366 bet.
9. Sobirova M. O'zbek tili va adabiyotini o'qitish metodikasi. Darslik. – Namanagan: Arjumand media, 2023. – B.512.